BOSHLANG'ICH TA'LIMDA MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI

Abiljonova Maftuna Mirzajonovna
Turan International University,
S.BT-22-08 guruh talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.23171378

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang'ich ta'lim jarayonida multimedia vositalaridan foydalanishning pedagogik afzalliklari tahlil qilingan. Multimedia texnologiyalarining o'quv materiallarini matn, grafik, audio, video, animatsiya va interaktiv elementlar asosida taqdim etish imkoniyatlari hamda ularning o'quvchilarning bilish faolligi, ta'lim motivatsiyasi, mustaqil fikrlashi va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqotda O'zbekistonlik pedagog olimlarning zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ta'limni axborotlashtirishga oid ilmiy qarashlari xorijiy tadqiqotlar bilan qiyosiy tahlil qilindi. Multimedia vositalaridan foydalanishning ko'rgazmalilik, interaktivlik, individual yondashuv, tezkor teskari aloqa va fanlararo integratsiya kabi afzalliklari asoslab berildi. Shuningdek, multimedia texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi o'qituvchining raqamli-pedagogik kompetensiyasi, o'quvchilarning yosh xususiyatlari va ta'lim maqsadlariga moslik bilan belgilanashi aniqlandi.
Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, multimedia, raqamli texnologiyalar, interaktiv ta'lim, elektron resurs, ko'rgazmalilik, ta'lim motivatsiyasi, raqamli kompetensiya.

Аннотация. В данной статье анализируются педагогические преимущества использования мультимедийных средств в процессе начального образования. Раскрываются возможности мультимедийных технологий для представления учебных материалов на основе текста, графики, аудио, видео, анимации и интерактивных элементов, а также их важность в развитии познавательной деятельности учащихся, образовательной мотивации, самостоятельного мышления и практических навыков. В исследовании представлен сравнительный анализ научных взглядов узбекских педагогов на современные педагогические технологии и информатизацию образования с зарубежными исследованиями. Обосновываются преимущества использования мультимедийных средств, такие как демонстрация, интерактивность, индивидуальный подход, быстрая обратная связь и междисциплинарная интеграция. Также установлено, что эффективность использования мультимедийных технологий определяется цифрово-педагогической компетентностью учителя, возрастными характеристиками учащихся и соответствием образовательным целям.
Ключевые слова: начальное образование, мультимедиа, цифровые технологии, интерактивное образование, электронные ресурсы, демонстрация, образовательная мотивация, цифровая компетентность.

Abstract. This article analyzes the pedagogical advantages of using multimedia tools in the primary education process. It highlights the capabilities of multimedia technologies to

present educational materials through text, graphics, audio, video, animation, and interactive elements, as well as their significance in fostering students' cognitive engagement, educational motivation, independent thinking, and practical skills. The study presents a comparative analysis of the views held by Uzbek pedagogical scholars regarding modern pedagogical technologies and the informatization of education alongside findings from international research. The advantages of multimedia tools—such as visual demonstration, interactivity, individualized approaches, rapid feedback, and interdisciplinary integration—are substantiated. Furthermore, the study establishes that the effectiveness of using multimedia technologies depends on the teacher's digital-pedagogical competence, the students' age-related characteristics, and alignment with educational objectives.

Key words: primary education, multimedia, digital technologies, interactive learning, electronic resources, visual demonstration, educational motivation, digital competence.

Kirish. Zamonaviy ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalarning keng qo‘llanilishi o‘qitish metodlari va vositalarining mazmunan yangilanishiga olib kelmoqda. Ayniqsa, boshlang’ich ta’limda o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’lim mazmunini ko‘rgazmali, qiziqarli va interaktiv shaklda tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtayi nazardan multimedia vositalari boshlang’ich sinf o‘quvchilarining bilish faoliyatini faollashtiruvchi samarali pedagogik vositalardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Multimedia tushunchasi matn, tasvir, grafik, audio, video, animatsiya va interaktiv elementlarning yagona axborot muhitida uyg’unlashuvini anglatadi. Ta’lim jarayonida multimedia vositalari elektron darsliklar, interaktiv doskalar, videodarslar, animatsiyalar, elektron taqdimotlar, raqamli didaktik o‘yinlar, interaktiv testlar va virtual modellar ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Boshlang’ich sinf o‘quvchilarining idrok jarayonida ko‘rgazmali-obrazli tafakkur muhim o‘rin egallaganligi sababli, murakkab yoki abstrakt tushunchalarni vizual va audio vositalar yordamida tushuntirish pedagogik jihatdan samarali hisoblanadi. Multimedia vositalari aynan shu ehtiyojni qondirish imkonini beradi.

UNESCOning ta’limda texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha tahlillarida raqamli vositalar o‘quv materiallarini turli shakllarda ifodalash, o‘quvchilar o‘rtasidagi interaktivlik va hamkorlikni kuchaytirish hamda ta’limni individualizatsiya qilish imkoniyatlarini kengaytirishi qayd etilgan. Shu bilan birga, multimedia vositalarining mavjudligi o‘z-o‘zidan ta’lim sifatini oshirmaydi. UNESCO texnologiya ta’lim maqsadlari va pedagogik metodlar bilan integratsiyalashgandagina samarali bo‘lishini ta’kidlaydi.

Tadqiqotning maqsadi boshlang’ich ta’limda multimedia vositalaridan foydalanishning pedagogik afzalliklarini aniqlash va ulardan samarali foydalanishning asosiy shartlarini ilmiy-metodik jihatdan asoslash.

Tadqiqot vazifalari: multimedia vositalarining pedagogik mohiyatini ochib berish, boshlang’ich ta’limda multimedia vositalaridan foydalanish imkoniyatlarini aniqlash, multimedia texnologiyalarining o‘quvchilarning bilish faolligiga ta’sirini tahlil qilish, O‘zbekistonlik olimlarning zamonaviy pedagogik texnologiyalarga oid qarashlarini o‘rganish, multimedia vositalaridan foydalanishning pedagogik afzalliklarini tizimlashtirish, samarali multimedia ta’lim muhitining pedagogik shartlarini ishlab chiqish.

Adabiyotlar tahlili. Boshlang'ich ta'limda multimedia vositalaridan foydalanish masalasi pedagogika, psixologiya, axborot texnologiyalari va raqamli didaktikaning kesishgan nuqtasida shakllanayotgan ilmiy yo'nalishlardan biridir.

O'zbekiston pedagogika fanida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ta'lim jarayonini takomillashtirish va o'quvchi faolligini oshirish masalalari N.N. Azizxo'jayeva, O'.Q. Tolipov, M. Usmonboyeva, R. Ishmuhamedov, A. Abduqodirov, R. Mavlonova kabi olimlarning tadqiqotlarida yoritilgan. N.N. Azizxo'jayeva pedagogik texnologiyalarni ta'lim maqsadlarini samarali amalga oshirishga yo'naltirilgan tizimli jarayon sifatida izohlaydi [1]. Ushbu yondashuv multimedia vositalarini ham mustaqil texnik vosita sifatida emas, balki muayyan pedagogik maqsadni amalga oshiruvchi didaktik komponent sifatida qarash imkonini beradi. O'.Q. Tolipov va M. Usmonboyeva pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etishda ta'lim oluvchining faol ishtiroki va pedagogik jarayonning izchilligiga alohida e'tibor qaratadilar [2]. Bu qarashlar multimedia vositalaridan foydalanishda o'quvchini passiv tomoshabinga aylantirmasdan, balki interaktiv topshiriqlar, savollar, muammoli vaziyatlar va amaliy mashqlar orqali faol ishtirokini ta'minlash zarurligini ko'rsatadi. R. Ishmuhamedov va hammualliflarning innovatsion pedagogik texnologiyalarga oid tadqiqotlarida interfaol metodlarning o'quvchilarning faolligi va ta'lim jarayonidagi ishtirokini kuchaytirish imkoniyatlari yoritilgan [3]. Multimedia vositalari interfaol metodlarni texnologik jihatdan qo'llab-quvvatlash imkonini beradi. R. Mavlonova va hammualliflarning pedagogikaga oid tadqiqotlarida o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish, ta'limning mazmuni va metodlarini bolaning rivojlanish darajasiga moslashtirish zarurligi ta'kidlanadi [4]. Bu tamoyil multimedia resurslarini tanlashda ham muhim ahamiyatga ega.

Xorijiy tadqiqotlarda R. Mayer multimedia orqali o'qitish masalasini keng tadqiq etib, axborotni turli kanallar orqali taqdim etish insonning axborotni qayta ishlash imkoniyatlari bilan bog'liq ekanligini asoslagan. Multimedia materiallari to'g'ri loyihalashtirilganda o'quvchining mazmunni tushunishi va bilimlarni tizimlashtirishiga yordam berishi mumkin. UNESCOning Global Education Monitoring Report 2023 hisobotida raqamli texnologiyalarning ta'limdagi ta'siri bo'yicha mavjud dalillar kichik va o'rtacha ijobiy samaralarni ko'rsatishi, biroq natijalar texnologiyaning o'zidan ko'ra uning qanday pedagogik maqsadda va qanday sharoitda qo'llanilishiga bog'liqligi qayd etilgan. UNESCOning boshlang'ich va umumiy ta'limdagi yangi raqamli texnologiyalar bo'yicha tadqiqotlari ham texnologiyadan foydalanish natijalarini kontekst, o'qituvchi tayyorgarligi va pedagogik integratsiya bilan bog'lash zarurligini ko'rsatadi. Shunday qilib, mavjud adabiyotlar tahlili multimedia vositalarining pedagogik imkoniyatlari kengligini ko'rsatadi. Biroq boshlang'ich ta'limda multimedia vositalaridan foydalanishning samaradorligi ularning texnik imkoniyatlaridan ko'ra didaktik maqsadga muvofiqligi, yosh xususiyatlariga mosligi va o'quvchi faoliyatini tashkil etish darajasi bilan belgilanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda tizimli tahlil, pedagogik kuzatuv, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, modellashtirish va pedagogik adabiyotlarni o'rganish metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning metodologik asosini:

- shaxsga yo'naltirilgan yondashuv;
- faoliyatga asoslangan yondashuv;

- kompetensiyaviy yondashuv;
- interfaol ta’lim;
- raqamli pedagogika;
- multimedia orqali o‘qitish tamoyillari tashkil etdi.

Multimedia vositalarining pedagogik samaradorligini baholashda quyidagi mezonlar belgilandi:

Mezon	Asosiy ko‘rsatkich
Motivatsion	O‘quvchining darsga qiziqishi
Kognitiv	Bilimni tushunish va o‘zlashtirish
Faollik	Darsdagi interaktiv ishtirok
Mustaqillik	Topshiriqlarni mustaqil bajarish
Kommunikativ	Hamkorlik va fikr almashish
Amaliy	Olingan bilimni qo‘llay olish
Raqamli	Raqamli vositalardan maqsadli foydalanish

Tadqiqot natijalari va muhokamasi. Tadqiqot natijalari boshlang’ich ta’limda multimedia vositalaridan foydalanish bir qator pedagogik afzalliklarga ega ekanligini ko‘rsatdi.

Ta’limning ko‘rgazmaliligini oshirish. Boshlang’ich sinf o‘quvchilari ko‘plab tushunchalarni vizual obrazlar orqali osonroq qabul qiladilar. Multimedia vositalari matnni tasvir, diagramma, animatsiya, video va audio bilan birgalikda taqdim etish imkonini beradi. Masalan, tabiatshunoslik darsida o‘simlikning o‘sish jarayonini oddiy matn orqali tushuntirish o‘rniga uning bosqichlarini animatsiya yordamida ko‘rsatish mumkin. Matematikada geometrik shakllarning o‘zgarishi, ona tili darsida tovush va harflarning talaffuzi, o‘qish darsida badiiy asar qahramonlarining harakatlari multimedia yordamida ko‘rgazmali ifodalanishi mumkin.

O‘quvchilarning ta’lim motivatsiyasini oshirish. Multimedia vositalarining rang-barangligi, harakatliligi va interaktivligi o‘quvchilarning e’tiborini jalb qilish imkonini beradi. Raqamli o‘yinlar, interaktiv savollar, videolar va animatsiyalar o‘quv faoliyatini emotsional jihatdan boyitadi. UNESCO tahlillarida raqamli texnologiyalar turli xil axborot ifodalash shakllari orqali o‘quvchilarni jalb etishi va interaktivlikni kuchaytirishi mumkinligi qayd etilgan.

Murakkab tushunchalarni osonlashtirish. Multimedia vositalarining muhim afzalliklaridan biri — abstrakt va murakkab tushunchalarni modellashtirish imkoniyatidir.

Individual ta’lim imkoniyatlarini kengaytirish. Har bir o‘quvchining bilimni o‘zlashtirish tezligi bir xil emas. Multimedia vositalari o‘quv materialini qayta ko‘rish, qayta tinglash yoki topshiriqni bir necha marta bajarish imkonini beradi. Shu sababli multimedia individual ta’lim uchun qulay vosita bo‘la oladi. UNESCO ham raqamli texnologiyalarning muhim imkoniyatlaridan biri ta’limni individualizatsiya qilish va qo‘shimcha mashq imkoniyatlarini yaratish ekanligini qayd etadi.

Interaktiv ta’limni tashkil etish. An’anaviy darsda o‘quvchi ko‘pincha tayyor axborotni tinglaydi. Multimedia vositalari esa o‘quvchini faol harakatga jalb qilish imkonini beradi.

Masalan:

Video → savol → interaktiv topshiriq → javob → teskari aloqa → xatoni tuzatish → yangi topshiriq.

Bunday ketma-ketlik o‘quvchining darsdagi faolligini oshiradi.

Tezkor teskari aloqani ta’minlash. Elektron testlar va interaktiv topshiriqlar o‘quvchining javobini tezkor baholash imkonini beradi. Bu o‘qituvchiga o‘quvchilarning qaysi mavzuni yaxshi o‘zlashtirganini, qaysi masalada qiyinchilik mavjudligini aniqlashga yordam beradi.

Fanlararo integratsiyani kuchaytirish. Multimedia vositalari bir darsning o‘zida bir nechta fan elementlarini birlashtirish imkonini beradi.

Masalan, “Suv” mavzusidagi integratsiyalashgan darsda:

Tabiiy fanlar + matematika + ona tili + tasviriy san’at + axborot texnologiyalari elementlari yagona multimedia taqdimoti asosida birlashtirilishi mumkin.

Multimedia vositalarining asosiy pedagogik afzalliklari

Multimedia vositasi	Asosiy afzalligi	Pedagogik natija
Video	Jarayonni real ko‘rsatish	Tushunish darajasi oshadi
Animatsiya	Harakatni modellashtirish	Abstrakt tushuncha osonlashadi
Audio	Eshitish orqali o‘zlashtirish	Fonetik ko‘nikmalar rivojlanadi
Interaktiv doska	Faol ishtirok	Dars interaktivligi oshadi
Elektron test	Tezkor nazorat	Teskari aloqa kuchayadi
Elektron darslik	Resursga doimiy kirish	Mustaqil ta’lim rivojlanadi
Raqamli o‘yin	Qiziqish va faollik	Motivatsiya oshadi
Virtual model	Jarayonni modellashtirish	Amaliy tasavvur shakllanadi

Biroq multimedia vositalaridan foydalanishda ayrim cheklovlarni ham hisobga olish lozim. Uzoq vaqt davomida ekran bilan ishlash, ortiqcha animatsiya, keraksiz tovush va vizual elementlarning ko‘pligi o‘quvchining diqqatini chalg’itishi mumkin. UNESCO hisobotida ham texnologiyadan me’yoridan ortiq foydalanish chalg’itish va ta’limdagi faollikning pasayishiga olib kelishi mumkinligi qayd etilgan. Mazkur modelda o‘qituvchi multimedia vositasining texnik operatori emas, balki ta’lim jarayonining pedagogik dizayneri va boshqaruvchisi sifatida faoliyat yuritadi. UNESCOning o‘qituvchilar uchun ICT kompetensiyalari frameworkida ham pedagogning raqamli vositalardan foydalanishi oddiy texnik ko‘nikma bilan cheklanmasdan, ularni o‘qitish va baholash jarayonlariga pedagogik jihatdan integratsiya qilishni qamrab oladi.

Xulosa. Boshlang’ich ta’limda multimedia vositalaridan foydalanish zamonaviy pedagogik jarayonning samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi muhim imkoniyatlardan biridir. Tadqiqot natijalari multimedia texnologiyalari o‘quv materiallarini ko‘rgazmali va tushunarli shaklda taqdim etish, o‘quvchilarning ta’lim motivatsiyasini oshirish, interaktiv faoliyatni tashkil etish, individual yondashuvni kuchaytirish va tezkor teskari aloqani ta’minlash imkonini berishini ko‘rsatdi. O‘zbekistonlik olimlarning zamonaviy pedagogik texnologiyalar va o‘quvchi faolligiga oid ilmiy qarashlari multimedia vositalarini boshlang’ich ta’limga joriy etishning nazariy-metodik asoslarini belgilashda muhim ahamiyatga ega. Multimedia vositalarining eng muhim afzalligi ularning matn, tasvir, audio, video va interaktiv faoliyatni yagona pedagogik muhitda birlashtira olishidadir. Bunday imkoniyat boshlang’ich sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlariga mos ravishda ta’lim mazmunini yanada qiziqarli va tushunarli tashkil etish imkonini beradi. Shu bilan birga, multimedia texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi ularning soni yoki texnik

imkoniyatlari bilan emas, balki pedagogik maqsadga muvofiqligi, o‘quvchining yosh xususiyatlariga mosligi, interaktivligi va o‘qituvchining raqamli-pedagogik kompetensiyasi bilan belgilanadi. Demak, boshlang’ich ta’limda multimedia vositalaridan foydalanishning optimal modeli “maqsad – multimedia vositasi – faoliyat – teskari aloqa – baholash – refleksiya” tamoyiliga asoslanishi lozim. Bunda raqamli texnologiyalar o‘qituvchining o‘rnini egallamasdan, uning pedagogik faoliyatini qo‘llab-quvvatlovchi vosita sifatida xizmat qilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2006.
2. Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006.
3. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste’dod, 2008.
4. Mavlonova R., To‘rayeva O., Holiqberdiyev K. Pedagogika. – Toshkent: O‘qituvchi, 2001.
5. Yo‘ldoshev J.G’., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2004.
6. Mayer R.E. Multimedia Learning. – Cambridge: Cambridge University Press, 2009.
7. UNESCO. Global Education Monitoring Report 2023: Technology in Education – A Tool on Whose Terms? – Paris: UNESCO, 2023.
8. UNESCO. Transforming Teaching and Learning with New Digital Technologies. – UNESCO Bangkok, 2022.
9. UNESCO. ICT Competency Framework for Teachers. Version 3. – Paris: UNESCO, 2018.
10. UNESCO. Best Practices in Mobile Learning. – Paris: UNESCO, 2023.